

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIGA RAHBARLIK QILISH

**Nuridinova Sarvinoz Rashid qizi**  
**Atamuratova Moxichexra Mansurbek qizi**  
Jizzax Davlat Pedagogika Unverseteti  
Maktabgacha ta'lim fakulteti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
3-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlariga rahbarlik qilish, boshqarish, ish yuritish va MTT direktori vazifasi va foliyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, rahbar, direktor, metod, nazorat, boshqaruv, ta'lim, tarbiya, pedagogik, foliyat, shaxs, rag'bat, mahorat, qonun, qaror.

### ABSTRACT

This article covers the role and purpose of leadership, management, proceedings and director of the MTT in preschool education organizations.

**Keywords:** preschool organization, leader, Director, method, control, management, education, upbringing, pedagogical, folio, personality, incentive, skill, law, decision.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны обязанности и деятельность директора организации дошкольного образования, управления, администрации и МТТ.

**Ключевые слова:** организация дошкольного образования, руководитель, руководитель, метод, контроль, управление, воспитание, воспитание, педагогика, деятельность, человек, стимул, умение, закон, решение.

### KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkiloti murakkab tarmoqli bo'lib bu ta'limning ilk bosqichi, jamiyatimizning eng muhim va ajralmas bir bo'lagi, Davlat jamoat tizmining asosiy bo'ginidir. Davlat maktabgachga ta'lim tashkiloti maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama soglom va yetuk qilib tarbiyalash, ularni maktab talimiga tayyorlab berish asosiy vazifasidir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari bu maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruvchisi hisoblanib u (MTT)oldida turgan maqsad va vazifalarga erishishni

taminlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori o'z foliyati davomida O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, qarori va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta'limga oid boshqa amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlariga asosan ish yuritadi va to'liq bajarilishini taminlash hisoblanadi. Direktor maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiyaviy ishni, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamosida ishchanlik maqsadga qaratilgan intizom va inoqlik vaziyatini yaratadi. Yuksaklik va siyosiy yetuklik, tamoyillilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik bu direktorga qo'yiladigan asosiy talabdir. Direktor maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda har xil vosita va usullardan foydalanadi va xodimlarini qilgan ishlari uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantiradi, bunda ma'naviy rag'batlantirishda pedagog xodimlarini har xil maqtoqlar orqali rag'batlantirsa, moddiy rag'batlantirishda pedagog xodimlariga sayohatlarga yo'llanmalar, estalik sovg'alar xonalarini jihozlarini yaxshilab berish, sog'lig'ini yaxshilash uchun yo'llanmalar, kasbiga oid sertifikatlar va kam ta'minlangan xodimlarga ham bolalari uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti tekin bo'lishini ta'minlaydi. Ularga nisbatan jazo choralarini ham qollaydi; o'z vakolati doirasida buyruqlar chiqaradi; davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti foliyatini takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy muhofazasini ta'minlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti foliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar)bo'lmiga kiritiladi. Direktor tashkilotchi, rahbar, malakali pedagog, uning foliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifasini to'laqonli hal etishga qaratilgan. talabchanlik, mudiraga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Jamoadagi o'zaro to'g'ri munosabatlar, har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilishini nazorat qiladi. Rahbarlik mavqeyi mudirani o'z g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy-huquqiy saviyasini va mutaxassislik mahoratini doimo ongli ravishda oshirishga, pedagogik bilimlarni, bolalarga ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashiga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarini bilishga, o'z bilimlaridan faoliyatida foydalanishga majbur etadi. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilishi, kamchiliklarni darhol bartaraf qilish choralarini ko'rishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlar mudirasi xalq ta'limini bosh-qarish bo'limlari tomonidan oliy ma'lumotga va 5 yildan kam bo'lmagan ish stajiga hamda kasbiga oid sertifikati bo'lishi til bilishi va boshqalariga ega shaxslardan tayinlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda kadrlarni tanlash, joyjoyiga qo'yish, tarbiyalash bo'yicha ishni mehnat jamoasi, maktabgacha ta'lim

tashkiloti kengashining faol ishtirokida amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini va madaniy darajasini muntazam o'stirib borishiga g'amxo'rlik qiladi, xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni tartibli va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi bu esa ularni o'z ustida ishlashini talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda kadrlar rezervini shakllantirib, ular bilan doimiy ish olib boradi. Direktor bolalar bog'chasining butun faoliyatiga, bolalar bog'chasini obodonlashtirish, ko'klam-zorlashtirish ishlariga rahbarlik qiladi. Smeta bo'yicha xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, muassasani oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tartibini to'g'ri tashkil etish, bog'chani rejadagi bolalar bilan to'ldirish, ta'lim-tarbiya dasturining bajarilishi uchun javobgar, yozgi sog'lomlashtirish ishlari, pedagogik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning bilimi, ishga nisbatan munosabati, ularning malakasini oshirish ishlari bo'yicha bosh rahbardir. Mudira bolalar hayotini saqlash, muhofaza qilish uchun bolalar muassasasida to'g'ri kun tartibi, shart-sharoit yaratadi. Sanitariya va gigiyena qoidalarining bajarilishini nazorat qiladi, yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazadi.

Direktorning vazifasiga tashkilotni yuqori kompetentlik, mahoratli va malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlashtirish bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy aqliy hamda axloqiy rivojlantiruvchi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish kerak.

Tashkilot faoliyatini rejalashtirish, yillik va istiqbol ish rejalarini ishlab chiqish ish rejalarini, o'quv-mavzu rejalarini, yillik taqvim o'quv dasturlarini tasdiqlashi lozim. Tashkilot pedagog va mutaxassislarining ish rejalarini ko'rib chiqish va tasdiqlash, ularni to'laqonli va sifatli ijro etilishi ustidan nazorat olib borishi bilan birgalikda tashkilotni istiqbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha buyruqlar qabul qilish va vakolati doirasida xodimlarga ish o'rinlarni yaratish, ishga qabul qilish va ishdan olib tashlashi ya'ni mehnat shartnomasini bekor qilish hamda maktabgacha ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, hamkorliklarni yo'lga qo'yish, maktabgacha ta'limga qamrovini oshirish, ayniqsa 6 yoshli bolalarni to'liq qamrab olish orqali boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash choralarini ishlab chiqishi kerak. Bulardan tashqari bir qator vazifalari va majburiyatlari ham mavjud. Maktabgacha ta'lim tashkilotida direktori muhim vazifalarni hal etishda pedagogik kengash va kuzatuv kengashi bilan birgalikda masalalarni va muammolarni hal etadi.

Pedagogik kengash ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, shuningdek uning faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish bo'yicha oliy organ hisoblanadi. Hujjatda pedagogik kengashning

maqsadi va asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari batafsil qayd etilgan bo'lib, Pedagogik kengash tarkibi tashkilot direktori, uslubchi va pedagog xodimlardan iborat bo'ladi. Tashkilotning har bir pedagog xodimi ishga qabul qilingan paytdan boshlab pedagogik kengashning a'zosi hisoblanadi. Pedagogik kengash yig'ilishi har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Zaruratga ko'ra, navbatdan tashqari yig'ilishlar o'tkazilishi mumkin, bunda kengash azolarining kamida uchdan bir qismi qatnashishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik kengash faoliyatiga oid quyidagi hujjatlar bo'lishi lozim. Xalq ta'limi tashkiloti faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limining buyrug'i bilan tasdiqlangan pedagogik kengashi to'g'risidagi nizom; pedagogik kengashning tasdiqlangan ish rejasi, pedagogik kengash yig'ilishida muhokama qilingan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar. Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalarini qayd etish doimiy ravishda, tahliliy materiallar va boshqa hujjatlar esa 3 yil mobaynida pedagoglar ish hujjatlari bilan saqlanadi hamda tegishli arxivga topshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori tashkilotni yanada rivojlantirish uchun Kuzatuv kengashlari tashkil etadi. "Kuzatuv kengashi"ga tashkilot faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-ho'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet va byudjetdan tashqari hamda homiylik mablag'laridan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot berib boorishi va tashkilotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag' hisobini qilish hamda yillik xarajatlar smetasini tuzilishida tuman (shahar) bo'limiga taklif kiritish lozim. Tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarning to'laqonli bajarilishida pedagog va xodimlarning mas'uliyati va javobgarligini oshirishda direktorni o'rni katta ahamiyat kasb etadi.

## **XULOSA**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari kadrlarning madaniyat, aqliy salohiyati, kasb mahorati va bilim darajasini muntazam o'stirib borishga g'amxo'rlik qiladi; xodimlarning malakasi va o'zlashtirgan tajribasini hisobha olgan holda shart-sharoitlar yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlariga, bugungi kun yangiliklari va chet ellardagi zamonaviy talimga oid bilimlar bilan tanishtirilib borilmoqda. Hozirgi kunda har bir xodim zamonaviy texnologiyalar bilan tanishgan bo'lishi va ishlay olishi kerak bundan tashqari til bilishga ham katta e'tibot qaratilmoqda, bu esa xodimlarni zamonaviy talablarga to'laqonli tayyorlash hisoblanib bunda ham direktorning o'rni muhim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori kadrlar zaxirasi shakllantirilib, talim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llay olish, ishlari amalga oshiriladi va xodimlar kasb foliyatiga oid yangi

bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda yetakchilik qiladi. Maktabgacha talim tashkilotiga rahbarlik qilishda, tashkilotni rivojlantirish, samaradorligini oshirish ish yuritish, qonunlar bo'yicha ish korish va boshqalar to'laqonli rahbar zimmasida hisoblanadi .

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida " PQ-3305-son va 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarorlari.
3. A.A. Abdullayev. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimi. Ilm - fan va jahon xalqaro ilmiy jurnali 2 (5), 19-21.
4. Abdullayeva, M. (2020). Bo'jak tarbiyachilarning qobiliyatini rivojlantirish asosiy omil. Zamonaviy fan va talim-tarbiya: muammo, yech, natija, 1, 112-114.
5. Abdulloh Xolmuradov "Maktabda ta'lim tizimini rivojlantirish: yangi usullar va innovatsiyalar – T. : 2021y
6. I.U.Murakayev, I.S.Saidnazarov Menejment asoslari. –T.: O'zbekiston, 2011y.